

PEDAGOGIK MAHORAT

1
2026



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1-son (2026-yil, yanvar)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

SHARAFITDINOV Abdulla	Emotional intelligence helps adolescents achieve their goals directed development	90
SHERNAFASOVA Husniyo Ravshanbekovna	“Pedagogik mahorat” fanida pedagogik nizolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni	95
SOBIROVA Nigora Qodirjon qizi	Pedagogik mahorat fanining ritorik tayyorgarlikdagi oʻrni	99
MATYOQUBOV Xamidjon Rozzaqovich, SOTIMOVA Farogʻat Safarboy qizi, KALANDAROVA Nodira Kadirovna	Texnologiya mashgʻulotlarida oʻquvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari	103
UMAROV Bahrom Norboevich	Darslik matnlari mazmunida oʻqib tushunishga moʻljallangan “oʻrnatilgan oʻqituvchi” texnologiyasi	108
USMONOVA Oydin Sherali qizi	Tanqidiy fikrlashga oid oʻzbek olimlarining qarashlari va pedagogik tahlili	113
YUSUPOVA Sanobar Odil qizi	Oliy taʼlim jarayonida talabalarning maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribalar tahlili	117
СУВАНКУЛОВА Малика Бахмуёр қизи	Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларда мантикий фикрлаш компетенциясини диагностика қилишнинг мезонлари ва индикаторлари	121
HAFIZOV Shahriyor Shavkatovich	Aksiologik yondashuv asosida boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilarining harakat faolligini oshirishning mavjud holati	128
SULHIDDINOVA Sabrina Sirojiddinovna	Pedagogik amaliyot jarayonida boʻlajak oʻqituvchilarning refleksiv koʻnikmalarini rivojlantirish metodikasi	133
TAJIYEV Mamarejab	Milliy malaka ramkalari va kasb standarti imkoniyatlari asosida taʼlim sifatini oshirishning ayrim jihatlari	138
GULYAMOVA Nafisa Burikulovna	Sunʼiy intellekt vositalari (chatgpt, gemini, copilot)dan foydalanishning pedagogik jarayon va tanqidiy fikrlash rivojiga taʼsiri	145
XALIKOVA Shaxodat Tuxtayevna	Koʻrishida nuqsoni boʻlgan bolalarning shaxslararo munosabat xususiyatlarini empirik tahlili	151
GAIBNAZAROVA Ozoda Yusuf qizi, ELOV Ziyodullo Sattorovich	Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining pedagogik faoliyatida oʻz-oʻzini tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish	156
TESHABAYEVA Zamira Sobirovna	Oliy taʼlim oʻquv jarayonida differensial yondashuv asosida talabalar kasbiy faolligini shakllantirishning tamoyillari	160
YOʻLDOSHEVA Mohidil Sobirjon qizi	Ishbilarmonlik va jamoada ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish mexanizmi	165
MIRZASOLIYEV Jaxongir Mirzasoiipovich	Oilada sogʻlom muhitni shakllantirishda ijtimoiy-emotsional barqarorlikning oʻrni	169
SAIDBEKOVA Feruza	Tibbiyot talabalarining kasb tanlashida psixologik	173

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA
O‘QITUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHNING MAVJUD HOLATI**

Hafizov Shahriyor Shavkatovich,
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Mazkur tadqiqotda aksialogik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakat faolligini oshirishning mavjud holati tahlil qilingan. Aksialogik yondashuv ta’lim jarayonida shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya sohasida bu yondashuv bo‘lajak mutaxassislarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabati, jismoniy faollikni shaxsiy va kasbiy qadriyat sifatida qabul qilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakat faolligi darajasi, ularning jismoniy mashg‘ulotlarga bo‘lgan motivatsiyasi hamda qadriyatli yo‘nalishlari o‘rganilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining harakat faolligi ko‘p hollarda normativ talablarga mos bo‘lmagan holatda namoyon bo‘lmoqda, bunda jismoniy mashg‘ulotlar ko‘proq majburiy o‘quv faoliyati sifatida qabul qilinib, ichki ehtiyoj va shaxsiy qadriyat darajasiga yetib bormayapti. Aksariyat talabalarda sog‘lom turmush tarzi, muntazam jismoniy faollik va kasbiy o‘rta o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yetarli darajada anglanmagan. Bu holat kelajakda ularning pedagogik faoliyatida o‘quvchilarda harakat faolligini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, harakat faolligi, jismoniy tarbiya, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, qadriyatlar tizimi, sog‘lom turmush tarzi, kasbiy tayyorgarlik, motivatsiya, pedagogik jarayon, jismoniy faollik darajasi

**ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО
ПОДХОДА**

В данном исследовании анализируется текущее состояние повышения двигательной активности будущих учителей физической культуры на основе аксиологического подхода. Аксиологический подход направлен на формирование и развитие системы ценностей человека в образовательном процессе, и в сфере физической культуры этот подход напрямую связан с отношением будущих специалистов к здоровому образу жизни, восприятием физической активности как личной и профессиональной ценности. В исследовании изучался уровень двигательной активности будущих учителей физической культуры, обучающихся в высших учебных заведениях, их мотивация к физической культуре и их ценностные ориентации. Анализ показывает, что двигательная активность будущих учителей физической культуры часто проявляется в состоянии, не соответствующем нормативным требованиям, при котором физическая культура воспринимается скорее как обязательная образовательная деятельность и не достигает уровня внутренней потребности и личной ценности. Большинство студентов не до конца понимают связь между здоровым образом жизни, регулярной физической активностью и профессиональным ростом. Эта ситуация может негативно повлиять на формирование у студентов активности в их будущей педагогической деятельности.

Ключевые слова: аксиологический подход, двигательная активность, физическая культура, будущие учителя физической культуры, система ценностей, здоровый образ жизни, профессиональная подготовка, мотивация, педагогический процесс, уровень физической активности.

**THE CURRENT STATUS OF INCREASING THE MOVEMENT ACTIVITY OF FUTURE
PHYSICAL EDUCATION TEACHERS BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH**

This study analyzes the current state of increasing the motor activity of future physical education teachers based on the axiological approach. The axiological approach is aimed at the formation and development of a person's value system in the educational process, and in the field of physical education, this approach is directly related to the attitude of future specialists to a healthy lifestyle, the perception of physical activity as a personal and professional value. The study studied the level of motor activity of future physical education teachers studying in higher educational institutions, their motivation for physical education, and their value orientations. The analysis shows that the motor activity of future physical

education teachers is often manifested in a state that does not correspond to normative requirements, in which physical education is perceived more as a mandatory educational activity and does not reach the level of internal need and personal value. Most students do not fully understand the link between a healthy lifestyle, regular physical activity, and professional growth. This situation may negatively affect the formation of students' activeness in their future pedagogical activities.

Keywords: axiological approach, motor activity, physical education, future physical education teachers, value system, healthy lifestyle, professional training, motivation, pedagogical process, level of physical activity.

Kirish. Fuqarolik jamiyati – o‘z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma‘muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.

XX asrda fuqarolik jamiyati g‘oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarning paydo bo‘lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo‘ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi.

Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- fuqarolar totuvligiga erishish yo‘llarini izlash;
- aholining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olish;
- qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish.

Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo‘lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi.

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Shunday qilib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlarini o‘raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro‘yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o‘rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko‘ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo‘lgan.

Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko‘rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatidirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko‘radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur‘at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e‘tirof etadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an‘analar va ma‘naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma‘naviy-axloqiy kamol topishini ta‘minlay olishi e‘tirof etildi.

Fuqarolik madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri - bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo‘lganligi bois, birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o‘rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarida o‘z ifodasini topishiga alohida e‘tibor berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik madaniyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai hisoblanishi (7-modda), O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida fuqarolik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha Konstitutsiyamizda qayd etilgan asosiy printsiplar va normalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq

tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash, saylov huquqi erkinligini taʼminlash, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish boʻyicha tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati asoslari yaratish va rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institut tomonidan uch bosqichga boʻlib tahlil qilish tavsiya etiladi.

Birinchi bosqich oʻz ichiga 1991-2000 yillarni qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyatining shakllanishining asoslari yaratildi

Ikkinchi bosqich (2000-2010 yillar) da mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash boʻyicha faol jarayonlar davom ettirildi.

2010-yil 12-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Mamlakatda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi eʼlon qilindi.

Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va madaniyatini rivojlantirish boʻyicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va yaʼni – uchinchi bosqichni boshlab berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarining mazmun mohiyatidan kelib chiqib fuqarolik jamiyati tushunchasiga turli xil darajada tariflar berilmoqda.

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha taʼrif berilgan: Fuqarolik jamiyati va madaniyati – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni taʼminlanadigan, shaxsning rivojlanishi va oʻzligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir.

Yurtimizdagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini ”... bu - erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat boʻlib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zoʻravonlik qilishga oʻrin yoʻq, Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi.

Bu jamiyatda koʻp ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashshabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari muvozanatga keltirib turiladi yoki-Fuqarolar oʻrtasidagi muaayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlar oʻrtasida konsensus madaniyati vujudga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan oʻzaro taʼsirga kirishishiga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin deya tariflaydi”

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati toʻgʻrisida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo boʻlib, fuqarolar oʻz erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻldilar.

Bu huquq Oʻzbekistonning xalqaro munosabatlarning subyektiga aylanganligidan, fuqarolarning oʻz taqdirini oʻzi amalda belgilash shart-sharoitlarini taʼminlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi toʻgʻrisidagi tamoyilga asoslana boshladi.

Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro oʻrtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zoʻravonligi, "boʻysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi.

Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga boʻlgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori boʻladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan soʻndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab boʻladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori boʻlmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real taʼminlab bermagan davlat tabiatan maʼrifiy boʻla olmaydi.

Demokratik jamiyatda esa fuqarolar ovz erkinligi va huquqlaridan toʻla foydalanish imkoniyatiga ega boʻladilar. Bular:

- avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish;
- davlat hokimiyatidan va mustaqil boʻlgan turli institutlarda ishtirok etish;
- ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat koʻrsatish;
- jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir boʻladigan oʻzgarishlardan xabardor boʻlish, turli fikr va qarashlarga oʻz munosabatlarini bildirishda erkin boʻlish bilan birga, muayyan maʼsuliyatini ham oʻz zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi.

Fuqarolik madaniyati insoniyat madaniy taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida «ideal odam», «ideal inson», «ideal shaxs» tushunchalarining mazmuni va negizida tarkib topa borib, yaxshilik va yomonlik,

ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash jarayonida kishilarning o'z o'rnini aniq topishi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buni biz miloddan oldin VII-VI asrlarda vujudga kelgan zardushtiylilik dini va uning muqaddas kitobi «Avesto»da ifodalangan ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal uyg'unligini aks ettiruvchi g'oyaviy qarashlar vositasida anglaymiz.

Madaniyatli fuqaroga «Avesto»da shunday ta'rif beriladi: «Inson fikran ham, hayolan ham hasadgo'y bo'lmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi hech qachon darg'azab bo'lmaydi va jaholatga berilmaydi, chunki johillik holatida u yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolatni unutib, nojo'ya harakatlar qiladi» («Yasna», 48).

Buning uchun birinchi navbatda mamlakat aholisining, jumladan yoshlarning fuqarolik madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularni g'amxo'r, mehribon, insonparvar, o'z burchi va mas'uliyatini teran anglaydigan qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Zero, yoshlarda fuqarolik madaniyatining shakllanishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Bugungi kun fuqarolik madaniyatining mazmunida xalqimizning axloqiy-huquqiy burch to'g'risidagi tasavvurlari, milliy ruhiyati, yuksak insoniy fazilatlari, ma'naviyati, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot uchun kurashi, xolis maqsad-muddaolari, orzu-istaklari mujassamlashgan. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, fuqarolik madaniyati inson, ayniqsa talaba-yoshlar hayotida muhim o'rin egallaydi. Fuqarolik madaniyatining quyi darajasi inson hayotining barcha tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Fuqarolik tuyg'ularining pastligi va qashshoqligi, burch va mas'uliyat, o'z Vatandan faxrlanish tuyg'usini, milliy iftixorni his qilmaslik yoshlarning ushbu oqimlarga ergashishiga sabab bo'lmoqda.

Jamiyatda u yoki, bu darajada hurmat va e'tiborga loyiq bo'lish ham fuqarolik madaniyatining bir ko'rinishi bo'lib, u inson hayotining iqtisodiy va ma'naviy tomoniga u yoki bu yul bilan albatta ijobiy yoxud salbiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, inson halol, nomusli, pok qalbli, o'ziga talabchan bo'lmasdan turib, madaniyatli, yetuk bo'lishi mumkin emas.

Chunki har qanday inson muayyan vaziyatlarda o'zini boshqara olish, qabul qilingan tartib-intizom, axloqiy-, huquqiy me'yor qoidalariga muvofiq yoki aksincha mazkur qonun-qoidalarga xilof ravishda yo'l tutishni o'zi mustaqil hal qiladi, o'z xatti-harakati va qilmishlariga shaxsiy dunyoqarashi, fuqarolik madaniyati nuqtai-nazaridan baho beradi.

Ushbu o'rinda shuni ham alohida e'tirof etish joizki, har bir inson shaxsiy qiyofasining ma'naviy shakllanganligi, jumladan fuqarolik madaniyatining tarkib topishi va rivojlanishiga ijtimoiy va iqtisodiy shartsharoitlar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishini inobatga olishi darkor. hozir biz butunlay yangi tarixiy sharoitda davlat va xalq ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, inson orzu-intilishlari erkin hal bo'layotgan bir davrda yashayapmiz. Bunday sharoitda fuqarolik madaniyatini shunchaki axloqiy-huquqiy burchga munosabat, xalq va Vatan oldidagi mas'uliyat sifatida sodda tushunmaslik kerak.

Fuqarolik madaniyatining har bir yo'nalishi va funksiyasi yangicha xususiyat kasb etib, chuqur mazmun bilan boyitib borilishi lozim. Chunonchi, fuqarolik madaniyati, ma'naviyatli, ma'rifatli insonlar o'rtasidagi munosabatlardan tortib, dunyoviy muammolarni hal etishgacha bo'lgan vazifalarni qamrab olmoqda. Odamlarning fuqarolik madaniyati yuksalgani sari ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda faol ishtirok etishlari tezlashib, mukammallashmoqda.

Ma'lumki, bir ijtimoiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga o'tish davrida g'oyaviy-mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy sohada ham muayyan muammolarni hal etish zaruriyati yuzaga keladi. Bu — qonuniyat. Totalitar tuzumdan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga o'tilayotgan bir sharoitda g'oyaviy mafkuraviy va ma'naviy-madaniy masalalarni anglash, ularning mohiyatini tushunish va mas'uliyatni zimmaga olish ancha qiyin ishdur.

Buning uchun, avvalo, har bir inson yangi tuzum, uning shart-sharoitlari mazmun-mohiyatini teran anglashi, unga o'zini tayyorlab borishi, axloqiy-huquqiy burch, fuqarolik mas'uliyati ko'nikmalarini o'zida hosil qilishi darkor har bir fuqaro bunga ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lishni aql, tafakkur elagidan o'tkazishi lozim.

Qotib qolgan tushunchalar qobig'ini sindirish, tanballik, tubanlik, boqimandalik, madaniyatsizlik kayfiyatidan birdan holi bo'lish, albatta, oson emas. Fuqarolik madaniyati ilg'or fikrlarni tez anglashga asoslanib, doimiy harakatdagi jonli pedagogik hodisadir.

Fuqarolik madaniyatining shakllanishi davr xarakteri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot shart-sharoitlari bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, har bir mamlakat o'z iqtisodiy-siyosiy ustqurmasiga asoslangan holda mehnatkashlar dunyoqarashini shu jumladan, fuqarolik madaniyatining yangi-yangi tartiblari, me'yorlarini vujudga keltiradi.

Bularning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi uchun vaqt zarur bo'ladi. Bugungi davr ham murakkab, to'zonli bo'lib, o'z xususiyatlariga ega. Shuning uchun yoshlarda fuqarolik madaniyatining shakllanishi silliq

va oson kechmaydi. Buning uchun vaqt va tarbiyaviy ta'sirlar tizimini yaratish kerak bo'ladi. Ammo, ta'kidlash joizki, fuqarolik madaniyati va ongni yoshlarda shakllantirish bu kunning kechiktirib bo'lmaydigan masalasidir. Fuqarolik madaniyatining inson hayoti uchun muhimligining yana bir tomoni uning barcha madaniyat sohalari uchun yetakchi ekanligidir.

Ilg'or ilmiy ta'limotning ta'kidlashicha, fuqarolik madaniyati axloqiy-huquqiy burchga munosabatni anglatuvchi omil sifatida aqliy tafakkur, hayotiy tajriba va ruhiy malakalarga asoslanadi.

Xulosa. Ko'p davrlarda fuqaro va inson tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida e'tirof etilib, fuqaroga ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining bir quroli sifatida qarab kelingan. Uning madaniy dunyosi, ruhiy olami, tafakkuri, yaratuvchilik faoliyati e'tibordan chetda qolgan. Buni birinchilardan bo'lib aniqlagan va ruhiy-pedagogik muammo tarzida ko'rib chiqqan olim avstraliyalik ruhshunos Zigmund Freyddir.

U insonni, uning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini «odam, shaxs, ruhiyat, fuqaro» tizimida o'rganib, ruhiyatning fuqaro madaniyatiga, madaniyatning inson bunyodkorligi, yaratuvchiligi, ijodiy faoliyatiga va haqiqiy shaxs bo'lib shakllanishiga ta'sirini ilmiy isbotlab berdi.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.Н. Таълим жараёнида талабаларнинг интеллектуал компетентлигини ривожлантириш. Замонавий таълим / Современное образование 2020, 2 (87)
2. Курамшин Ю. Ф., Акмеология спортивных достижений: Теоретические и прикладные аспекты: дис. д-ра ... пед. наук / Ю. Ф. Курамсхин. - СПб.: СПбГАФК, 2002. - 593 с.
3. Nazarov Q. Falsafa: qomusiy lug'at. — T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004
4. Hafizov Shahriyor Shavkatovich "O'zbek xalq o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlari." *PEDAGOGS jurnali* 1.1 (2023): 434-434.
5. Hafizov Shahryar Shavkatovich "The role of axiological education in the development of the preparation of students for social-pedagogical activity." *International Journal of Advance Scientific Research* 3.12 (2023): 407-410.
6. Hafizov Shahryar Shavkatovich "Study of the formation of civil culture of future physical education teachers based on the axiological approach in pedagogical and psychological sources." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.